

Yusupova Nafisa Togayevna

*Toshkent viloyati Angren shahar 34-sonli
tayanch-harakat a'zolari shikastlangan bolalar
uchun ixtisoslashtirilgan maktab internetining
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha rahbar o'rinbosari*

Anotatsiya: Maqolada tarbiya va bola shaxsining rivojlanishida tarbiyaning roli haqida ma'lumot berilgan. Bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda tarbiyaning shaxs kamolotiga ta'siri haqida bayon etilgan. Hozirgi shiddad bilan rivojlanib kelayotgan mamlakatimizning qay darajada yuksalishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim tarbiyasiga bevosita bog'liq hisoblanadi. Shaxsning kamolga yetishida nasl-irsiyat, ijtimoiy muhit, ta'lim-tarbiya muhim ahamiyatga ega. Rivojlanish kishidagi jismoniy, ruhiy va ijtimoiy jarayon bo'lib, u barcha tug'ma va egallangan miqdor va sifat o'zgarishlarini o'z ichiga oladi.

Kalit So'zlar: tarbiya, ta'lim, maktabgacha ta'lim, mehnat, o'yin, mashg'ulot, shaxs, oila, tashqi muhit, irsiyat, tug'ma qobiliyat.

Tarbiya - inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiya - aniq maqsadlarni ko`zlab sistemali ravishda, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirishi yo`lida tarbiyachi rahbarligida amalga oshirib boriladi. Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uni natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Bola shaxsining shakllanish jarayoni tarbiya va ta'lim sharoitida insoniyatning ijtimoiy-tarixi tajribasini o`zlashtirish orqali amalga oshiriladi. Bu xilmaxil faoliyat turlarida ro'y beradi. Natijada bola o`zi yashayotgan jamiyat ijtimoiy munosabatlari sistemasiga kiradi. Bolaning ijtimoiy tajribani o`zlashtirish tajribasi uzoq davom etadigan murakkab jarayondir.



Qiyinchilik shundan iboratki, bola, bir tomondan, mazmun, hajm va umumlashtirish darajasi jihatidan murakkab bo`lgan insoniy tajribani o`zlashtirishi kerak, ikkinchi tomondan, u mazkur tajribani o`zlashtirish usullarini hali egallamagan bo`ladi. Tarbiya va ta’lim jarayonida katta yoshli odam bolaga tushunarli bo`lgan mazmunni tanlaydi, uning o`zlashtirishiga rahbarlik qiladi, bola shaxsini rivojlantirishda tarbiyaning yetakchilik roli shu bilan belgilanadi. Bunda bolaning ruhiy-fiziologik imkoniyatlari, ularning jo`sinqinligi hisobga olinadi. Shu munosabat bilan tarbiya jarayonining o`zi doimiy bo`lib qolmaydi. U o`zgarib boradi: uning mazmuni boyiydi va murakkablashadi, shakllari o`zgaradi, o`savotgan odam shaxsiga ta’sir ko`rsatish usullari tobora xilma-xil bo`lib boradi. Tarbiyaning o`zgarishi bolaning «eng yaqin rivojlanish zonalari» (L. S. Vigotskiy) bilan bog`liq bo`lib, ular ancha murakkab mazmundagi bilimlar, ko`nikmalar, faoliyat turlari va hokazolarni o`zlashtirishga ruhiy-fiziologik imkoniyatlar paydo bo`lishi bilan ajralib turadi (masalan, emaklashdan keyin yurish; bijir-bijirdan keyin faol nutqni o`zlashtirish; ancha miqdordagi tasavvurlarga ega bo`lgandan keyin tushunchalar darajasidagi bilimlarni o`zlashtirish; buyum asosidagi o`yin, mehnat faoliyatining vujudga kelishi va hokazo).



Erta ta’limning yagona maqsadi bolani aqilli va sog’lom, o’tkir zexnli va gapga qulq soladigan qilib tarbiyalashdir. Barcha bolalar, agarda ularda tug’ma, jismoniy nosog’lomlik va aqli zaiflik bo’lmasa, ular bir xilda ong bilan tug’iladi, hech bir bola ona qornidan biron bir bilimni bilib tug’ilgan emas albatta. Bolalarning qay darajada kamol topishi ota-onalarga bog’liq. Bolalarga bu davrda kerakli bo’lgan ta’limtarbiyaning berishning asosiy sabablaridan biri bu inson miyyasi, taxminan 1,4 milliard hujayradan iborat bo’lishi, biroq yangi tug’ilgan chaqaloqlarda uning aksariyati hali shakllanmaganligidir. Miyya hujayralari alohida-alohida tarqoq holda ishlamaydi. Miyyaning mikro sur’atiga qaraydigan bo’lsak, tug’ilgandan so’ng vaqt o’tib ongi rivolangan sari uning hujayralari orasida shoxlar paydo bo’ladi. SHu jarayonlarda biz

bolalarga ta'lim-tarbiya bersak maqsadga muvofiq bo'ladi. Zero bu shoxlar shunchaki shox emas, balki meva beradigan shoxlar bo'lib yetishsa. Tug'ilgandan keyin birinchi olti oy davomida miyyaning salohiyati 50%, uch yoshgacha esa 80%ga yetadi. Ana ko'rdingizmi bu darajadagi rivojlanish shuncvhaki rivojlanish emas, balki natija beradigan qilib tarbiyalash lozimligini ko'rsatib turibdi. Demak biz "bolaga tarbiya qachondan boshlab berilishi kerak?" degan savolga anniq javob oldik. Bola tug'ilgandan boshlab unga tarbiya berish lozim. Bu haqida buyuk shaxslar ham o'z fikrlarini bildirganlar. Xususan, Yusuf Xos Xojibning uqtirishlaricha har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol topmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. Farzandlar tarbiyasi nixoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti-harakatlariga berilishining oldi olinadi. Alisher Navoiy bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e'tibor beriladi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk bo'lib o'sishiga ishonadi. Yosh bolani juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur deb uqtiradi. Allomalarimizning fikrlari yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga to'laqonli mos ekanligi biz va sizga yaqqol ko'rinish turibdi. Endi bu yosh davrida bolaga qanday qilib ta'lim va tarbiya berish mumkun degan savol tug'iladi albatta. Bu savolning javobini quyida berilgan ma'lumotlar orqali topamiz. Bola tug'ilgandan so'ng, u gapirishni, o'qishni, yozishni bilmasa ham unda sezgi a'zolari juda kuchli rivojlangan bo'ladi. Hozirgi zamon onalaridan farzandlariga bo'lgan juda kata e'tibor talab qilinadi. To'g'ri, endi tug'ilgan go'dakka bu narsa bunday, u narsa unday deb yoki qilayotgan ishing to'g'ri, aksincha noto'g'ri deb tarbiya berib bo'lmaydi. Lekin onalar va otalr ular uchun tarbiya manbai hisoblanadi. Bundan ko'rinish turibdiki, avvalo ota-onha birinchi navbatda oliy darajada tarbiyalangan bo'lishi kerak. Shundagina ular farzandalari uchun o'zlari hohlagandek "Science and Education" Scientific Journal March 2021 / Volume 2 Issue 3 www.openscience.uz 298 tarbiyani bera oladilar. Go'dak hali yosh bo'lishiga qaramay ota va ona munosabatlarini kuzatuvchisi va ularning bir-biriga bo'lgan muomalasidan asosiy tarbiyani oluvchi hisoblanadi. Chaqaloq ularning bir-birlariga qanday munosabat bidirayotganini ularning yuz tuzilishidan bemalol bilib turadi. Shuning uchun bolalarga tarbiya berayotganlarida nihoyatda ehtiyyotkoronalik bilan munosabt bildirishlari lozim. Bolalarda birinchi uch yilliklarida olgan bilimlari ularning kelajakda o'z faoloyatlarini bemalol yurita olishlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Bu davirda xalqimizning ongiga singib qolgan bir tushuncha "Hali yoshda" deb nomlangan tushuncha bularning o'z farzandlariga bo'lgan mehribonchiliklarini emas, balki jabr qilayotganliklaridan dalolatdir. Bu davorda bolaga nimani o'rgatsa shuni to'laqonli qabul qiladigan yosh hisoblanadi. Bolalar bilan ko'proq muloqotda bo'lish ham ularning tarbiyalanishi uchun asos bo'lib hizmat qiladi. Bolalar hali yosh bo'lishlariga qaramay, ular yuqoridagi fikrlarimizda ta'kidlaganimizdek hamma narsani tushunadi. Suhbatlashishdan mahrum qilingan go'dak aqliy qobiliyati zaif va xulq-atvori og'ir bo'lib ulg'ayadi. "Inson jamiyat mahsuli va undan ayro yashay olmaydi" deyishadi. Bolalar bilan suhbatlashish,

ularning dunyo qarashlarini har taraflama rivojlantrib boradi. Bolalarda bu davrda ularga o’z hayot yo’llarini qurishida asosiy bo’lgan sohalarga boy davr hisoblanadi. Bu yoshdan ota-onalar bolalarga kerakli ko’nikmalarni berib borsalar, kelajakda otaonalar ham bolalar ham qiynalmaydilar. Ota-onalar bolalarga ular uch yoshgacha bo’lgan davrda ma’sul bo’lsalar, o’z vazifalarini to’laqonli amalga oshirsalar keying bosqich bu tarbiyachilar bilan birga hamkorlikdagi bosqich hisoblanadi. Bu davr ham bolalar hayotida o’ta muhim davrlardan biri hisoblanadi. Bola bu yoshida Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga borish orqali boshqa bolalar bilan munosabat, o’zaro aloqa o’rnatishni o’rganadi. Tarbiyachi tomonidan beriladigan har qanday bilim bolalar ongida tez tasavvurlarni hosil qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. F. Qodirova, Sh. Toshpo’latova, M. A’zamova Maktabgacha pedagogika T. : Ilm-ziyo. 2019-yil
2. Sodiqova Sh. A Maktabgacha pedagogika T. : Tafakkur bo’stoni
3. “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi.
4. Ibuka Massari “Uchdan keyin kech” T. : Akademnashr 2019
5. References
6. F.Qodirova, Sh. Toshpolatova, M. Azamova Preschool pedagogy T .: Science. 2019
7. Sodiqova Sh.A. Preschool Pedagogy T.: The Garden of Thought
8. State program "First step". 4. Ibuka Massari “Late After Three” T .: Akademnashr 2019